

AGROBIZNES KORXONALARIGA SIFAT MENEJMENTINI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA TAMOYILLARI.

Tillayeva Muhayyo

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti o'qituvchisi

MODERN APPROACHES AND PRINCIPLES OF IMPLEMENTATION OF PRODUCT MANAGEMENT IN AGRIBUSINESS ENTERPRISES.

Tillaeva Mukhayyo

Teacher of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotatsiya. Sifat menejmenti zamonaviy boshqaruvning muhim falsafalaridan biri hisoblangan boshqaruv konsepsiyasi hisoblanadi. Mazkur boshqaruv shakli korxonalarda ishlab chiqarish xususiyati va shaklidan kelib chiqib turlicha qo'llanilishi mumkin. Har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot sotilayotgan bozor joylashgan hududning standartlariga va o'sha joydagi sotib olayotgan xaridorlarning qiziqish hamda hohishlariga mos bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, bozor munosabatlari, sifat menejmenti, ISO standartlari, unumdorlik, raqobatbardoshlik, qaror qabul qilish, mijoz.

Abstract. Quality management is a management concept that is considered one of the important philosophies of modern management. This form of management can be used in enterprises in different ways depending on the nature and form of production. Each manufactured product must meet the standards of the area where the market is located and the interests and desires of the buyers in that place.

Key words: agriculture, market relations, quality management, ISO standards, productivity, competitiveness, decision-making, customer.


KIRISH. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini tarkib topishi va rivojlanihi sohada tub tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish asosida amalga oshirilmogda. Tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish asosida amalga oshirilib agrar iqtisodiyotni bozor talablariga moslashtiradi hamda qishloqda mulkdorlar qatlamini vujudga kelishi va xususiy

tadbirkorlikni rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratadi.

Sifatni boshqarishning zamonaviy nazariyasida, sifatni boshqarish bo‘yicha faoliyat mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin samarali emas, balki bu faoliyat mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilishi lozim deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sifat menejmentining rivojlanishi korxonalarda aniq standart asosida mahsulot ishlab chiqarishga hamda jahon bozorida umumbelgilangan standartlarni amal qilishiga imkon beradi. Sifat menejmentini ilk rivojlanishi 1910-yillarda, Ford kompaniyasida “T” Model avtomobilini ishlab chiqarish liniyasida shakllandi. Korxonada mahsulotni standarti bilan taqqoslash hamda sinovdan o‘tkazish uchun nazoratchilar guruhini tuzdi.

Sifat menejmentini ishlab chiqarishga, amaliyotga tadbiq etishning juda ham ko‘plab prinsiplari mavjud.



1.-rasm. ISO talablariga asosan sifat menejmenti.

Sifat boshqaruvidagi barcha tamoyillar 1946-yilda tashkil topgan Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning standartlari asosida ishlab kelmoqda. Xususan, Rossiyalik olimlar V.M. Mishin, M.M.Kane, B.V.Ivanov, V.N.Koreshkov, A.G.Sxirtladze va T.A.Salimovalar sifat boshqaruvidagi asosiy

prinsiplarning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tganlar. Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, sifat menejmentining umum qabul qilingan prinsiplari ISO

NATIJALAR. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sifat menejmentining barcha yo'nalishdagi tamoyillari ishlab chiqarishga va uni administrativ boshqarishga asoslangan bo'lib, tayyor mahsulotni iste'molchigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi.

Sifatni boshqarish prinsiplarini sifat mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ham izohlash mumkin.

Fikrimizcha sifatni boshqarish tamoyillarini asosiy va yordamchi kabi ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi turdagi tamoyillar guruhiga xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarish va sotish taalluqli bo'lsa, ikkinchi turdagi tamoyillarga mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq tashkiliy, innovatsion tamoyillar kiradi.

1. Xomashyoni sotib olish bilan bog'liq tamoyillarga:

- tranzaktsiya harajatlarini optimallashtirish;
- ta'minotchiga aniq talablar tizimini ishlab chiqish;
- hujjatlashtirish- sotib olinayotgan xomashyo va materiallar barcha yo'nalishlar bo'yicha belgilangan barcha hujjatlarni rasmiylashtirish;
- kirish nazoratini takomillashtirish;
- yetkazib berish qoidalarini samarali kelishuvini tashkil etish;
- ta'minot bo'yicha logistik tizimni doimiy tahlil qilish.

2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq tamoyillar:

- tartib-intizom barcha boshqaruv jarayonlari uchun asosiy talab bo'lishi talab etiladi;
- texnologik jarayonlarga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritmaslik;
- yo'riqnoma bo'yicha ishlash;
- hamma predmetlarni o'z joyida saqlash;
- defect va braklarga yo'l qo'ymaslik
- o'z ustida ishlash, kreativ fikrlash uchun imkoniyat yaratilishi;
- samarali laboratoriya tashkil etilishi;

- mahsulotni keying bosqichga o'tkazishda tanlanma kuzatish;
- mehnat predmetlarini ishga shay holatda saqlash;

XULOSA. Yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqqan holda, sotish, tashkiliy va innovatsion tamoyillar ham kelib chiqadi va ular ham ta'minot va ishlab chiqarish tamoyillarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Sotish tamoyillari Tovar hayotiy siklining aksi hisoblangan ikkinchi tomonida turadi. Tashkiliy va innovatsion tamoyillar esa korxonada sifat menejmentini tashkil etishda infrastruktura ko'rinishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мазур И.И. Управление качеством: Учебное пособие для студентов вузов. – М.:Омега-Л, 2012.-216с. 113б.
2. Jens Dahlgaard, Kai Kristensen and Gopal K.Kanji Fundamentals of Total Quality Management. Textbook, LondonandNewYork, Taylor&Francis 2002. Pages. 337.
3. <https://www.iso.org/publication/PUB100080.html> – International Organization for Standardization ISO rasmiy sayti
4. Мишин В.М. Управление качеством: для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации», М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2005 – 64 с
5. Кане М.М., Иванов Б.В., Корешков В.Н., Схиртладзе А.Г. Системы, методы и инструменты менеджмента качества: Учебного пособие. – СПб.: Питер, 2008. – 67 с.
6. Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности «Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-еизд., стер. – М.: Издательство «Омега-Л», 2008. – 43 с.
7. Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности «Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-еизд., стер. – М.: Издательство «Омега-Л», 2008. – 43 с.

8. Ж.Қамбаров, Ю.С.Шокирова. Сифат менежментини такомиллаштириш: Монография. Т.: “Наврўз”, 2018.-61 бет.
9. Д.А.Орипов Чарм-поябзал корхоналарида сифат менежментини такомиллаштириш Н.Халилов Маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишда сифатни бошқариш тизимини такомиллаштириш (Фарғона вилояти саноат корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Т.: 2021й. 12 бет